
Tadbirkorlar bilan uchrashuv

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha Vakil devoni bosh inspektori M.Po'latov Rishton tumanida tadbirkorlar bilan uchrashdi.

Unda tuman hokimi, hokim yordamchilari, talbirkorlik sub'ektlari, tijorat banklari hamda tegishli tashkilot rahbarlari ishtirok etdi.

M.Po'latov ishtirokida tadbirkorlarni qiynayotgan muammolar va ularning takliflari borasida ochiq muloqot qildi.

Uchrashuv davomida tadbirkorlar tomonidan bildirilgan yer maydoni, bino va ob'ektlar, bank krediti olish, kommunal va boshqa sohalardagi o'nlab murojaatni o'rnatilgan tartibda ijobiy hal etish bo'yicha tegishli mutasaddilarga aniq vazifa va topshiriqlar berildi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-08-06 08:39:57